



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 04 | pp. 93-102 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

O‘ZBEKISTONDA BEVOSITA VA BILVOSITA SOLIQQA TORTISH DARAJALARININ TARIXIY SHAKLLANISHI



Qodirov Bahodir Qudratovich

Termiz davlat universiteti

“Moliya” kafedrasida dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda bevosita va bilvosita soliqlar tortishning 34-yillik shakllanish bosqichlari, soliq tizimining shakllanish bosqichlaridagi nazariy va huquqiy asoslari, bevosita va bilvosita soliqlarning shakllanishining har bir bosqichida amal qilgan soliqlar tarkibi va ularning qo‘llanish amaliyoti tahlil qilingan. Maqola muallifi mamlakatimizning mustaqilligini o‘tgan davrida shakllangan bevosita va bilvosita soliqlarning o‘rni va ahamiyatini, soliqlarning o‘ziga xos xususiyatlarini, muammolari va afzal jihatlari, budjet daromadlarini to‘ldirishdagi tarixiy roli va vazifalari haqida ma‘lumotlar keltirgan. Shuningdek, maqolada o‘tgan davrlarda amal qilgan bevosita va bilvosita soliqlarning nazariy va huquqiy jihatlari baholanib, soliq mexanizmlaridagi muammolarni bartaraf etilish borasida amalga oshirilgan soliq islohotlari yoritib berilgan. Tadqiqotda tizimli va institutsional yondashuvlar, qiyosiy tahlil, iqtisodiy va matematik modellarga tayanilgan.

Kalit so‘zlar: Soliq tizimi, evolyutsion tarixiy shakllanish, bevosita va bilvosita soliqlar, bevosita va bilvosita soliq tortish bosqichlari, bozor munosabatlari, global iqtisodiyot, soliq mexanizmi, soliq ob‘ekti, soliq bazasi, soliq to‘lovchilar.

Abstract. The article analyzes the 34-year stages of formation of direct and indirect taxation in Uzbekistan, the theoretical and legal foundations of the formation of the tax system, the composition of taxes and the practice of their application at each stage of formation of direct and indirect taxes. The author of the article provides information on the role and significance of direct and indirect taxes formed during the period of our country’s independence, their specific characteristics, problems, and advantages, as well as their historical role and tasks in replenishing budget revenues. Additionally, the article evaluates the theoretical and legal aspects of direct and indirect taxes in previous periods and highlights tax reforms implemented to eliminate problems in tax mechanisms. The study relies on systemic and institutional approaches, comparative analysis, and economic and mathematical models.

Key words: Tax system, evolutionary historical formation, direct and indirect taxes, stages of direct and indirect taxation, market relations, global economy, tax mechanism, tax object, tax base, taxpayers.

Аннотация. В статье анализируются этапы формирования прямого и косвенного налогообложения в Узбекистане за 34 года, теоретические и правовые основы этапов формирования налоговой системы, состав налогов, действовавших на каждом этапе формирования прямых и косвенных налогов, и практика их применения. Автор статьи приводит сведения о роли и значении прямых и косвенных налогов, сформировавшихся за

прошедший период независимости нашей страны, особенностях, проблемах и преимуществах налогов, их исторической роли и задачах в пополнении доходов бюджета. Также в статье оцениваются теоретические и правовые аспекты прямых и косвенных налогов, действовавших в прошлые периоды, и освещаются налоговые реформы, проведенные для устранения проблем в налоговых механизмах. В исследовании использованы системный и институциональный подходы, сравнительный анализ, экономические и математические модели.

Ключевые слова: *Налоговая система, эволюционное историческое формирование, прямые и косвенные налоги, этапы прямого и косвенного налогообложения, рыночные отношения, глобальная экономика, налоговый механизм, объект налогообложения, налоговая база, налогоплательщики.*

KIRISH

O'zbekistonning mustaqillik yillarida soliq tizimini rivojlanish bosqichlari ko'rib chiqilganda, dastlab mustaqillik arafasida amal qilgan va 1990-yillarda sobiq sovet ittifoqidan meros bo'lgan soliq tizimining huquqiy asoslariga duch kelamiz. Ushbu ma'muriy me'yorlarga asoslangan soliq tizimi tanlangan bozor iqtisodiyoti qonunchiligiga muvofiq kelmasdi. Shu boisdan, mavjud meros soliq tizimini erkin bozor iqtisodiyoti mezonlariga moslashtirish, bunda soliq solishning rivojlangan mamlakatlar tajribalariga tayanilgan holda milliy xususiyatlar e'tiborga olingan mustaqil soliq tizimini shakllantirish lozim edi. Shuning uchun, o'zimizning va rivojlangan mamlakatlarning tarixiy tajribalariga tayangan holda uzluksiz soliq islohotlari olib borildi. Amalga oshirilgan 34-yillik soliq islohotlari natijasida bir muncha zamonaviy va milliy xususiyatlar singdirilgan hozirgi soliq tizimi yuzaga keldi. O'tgan davr davomida soliq qonunchiligini takomillashtirish va xalqaro qonunchilik mezonlariga moslashtirish borasida tizimli soliq islohotlari amalga oshirilib, bevosita va bilvosita soliqlardan iborat hozirgi soliq tizimi shakllandi. Shunday bo'lsada, shakllangan bevosita va bilvosita soliqlardan iborat soliq tizimining muammoli va ijobiy jihatlarini to'g'ri aniqlash va istiqbolli soliq mexanizmlarini qaror toptirish maqsadida o'tgan davrda shakllanib kelgan bevosita va bilvosita soliqlardan iborat soliq tizimini tarixiy- evolyutsion rivojlanish bosqichlarini ilmiy nuqtai nazardan baholash faqat manfaat keltiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI.

Jahon mamlakatlarida, shu jumladan O'zbekistonda yuzaga kelgan bevosita va bilvosita soliqqa tortish tizimining shakllanishida va takomillashuvida shu vaqtga qadar tadqiqot ishlari olib borgan nazariyotchi olimlar, amaliyotchi mutaxassislar va tadbirkor soliq to'lovchilarning roli bo'lib soliq tizimini rivojlantirishda ularning har birini o'rni beqiyosdir.

Dastlab, bevosita va bilvosita soliqlar haqidagi fikrlar va qarashlar 17-asrning oxirlari va 18-asrning boshlarida yashab ijod qilgan U.Petti, D.Lokk, A.Smit, D.Rikardo, F.Yakobin va boshqa mutafakkir olimlar tomonidan bildirilib, asarlarida o'z nazariyalarini bayon etishgan.

Hozirgi vaqtga shakllangan bevosita va bilvosita soliqqa tortish tizimi, undagi bevosita soliqlar yoki bilvosita soliqlarning iqtisodiy mohiyati, alohida jihatlari va muhim xususiyatlari haqida turlicha qarashlar va xulosalar chiqarishgan.

Shu jumladan, rus iqtisodchisi I.Gashenkoning qayd etishicha, bevosita va bilvosita soliqlarning tarkibi davlatning rivojlanish darajasiga, uning moliyaviy-iqtisodiy holatiga, ijtimoiy munosabatlar shakllariga bog‘liq. Agar soliq tizimida bilvosita soliqlar ustunlik qilsa, bu davlat iqtisodiy jihatdan rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Soliq tizimida to‘g‘ri soliqlar ustun bo‘lsa (birinchi navbatda, fuqarolarning daromad solig‘i), bu holat davlatning moliyaviy va iqtisodiy barqarorligini ifodalovchi eng muhim korsatkichdir” [1, 26-bet], deb hisoblagan. Bizning fikrimizcha. olimning ushbu fikri bozor mexanizmlari rivojlangan mamlakatlarga xos bo‘lib, iqtisodiyoti rivojlanmagan mamlakatlarda bilvosita soliqlar ham fiskal va tartiblovchi vazifani samarali bajarishi mumkin.

A.A. Krivosheyeva “...bilvosita soliqlar aniq fiskal va tartibga solish funksiyasiga ega. Bilvosita soliqqa tortish tizimi g‘aznaga tushumlarni jalb qilishning eng qulay shakli bo‘lib, katta summalarni tez va muntazam ravishda olish imkonini beradi. U iqtisodiyotga ta‘sir ko‘rsatish imkoniyatini, yani ishlab chiqarishni u yoki bu yo‘nalishda rag‘batlantirish yoki cheklash hamda iste‘molni tartibga solish imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi va shu bilan birga iqtisodiy jarayonlarga tez javob berish imkonini beradi”¹ deb fikr bildirgan.

Malayziyalik tadqiqotchi olim Taufik Abd Hakim “bevosita soliqlar iqtisodiy o‘shishga sezilarli va ta‘sirchan bog‘liq ekanligini, bilvosita soliqlar esa iste‘molchilar uchun sal‘biy, ammo ahamiyatsiz ta‘sir ko‘rsatishi”ni bildirgan” [3, 26-bet]. Bizning nuqtai nazarimizga ko‘ra malayziyalik olimning xulosasi qisman asosli bo‘lib, uning bilvosita soliqlarning ahamiyatsiz ta‘sir ko‘rsatishi haqidagi fikriga qo‘shila olmaymiz.

Kosovolik olimlar Alban Elshani va Skender Ahmeti olib borilgan tadqiqoti natijasida “mamlakatlarning iqtisodiy o‘shishiga bevosita soliq solish ijobiy ta‘sir ko‘rsatsa, bilvosita soliqlarning salbiy ta‘siri mavjud” [4, 54-bet]. Bizning xulosamizga ko‘ra Kosovalik olimning nuqtai nazari bilvosita soliqqa tortish hajmi oltin nuqta chegarasidan oshmasa sal‘biy ta‘siri namayon bo‘lmaydi.

O‘zbekistonlik olimlar va amaliyotch mutaxassislardan A.Jo‘raev, Sh.Toshmatov va O.Abduraxmonovlarning fikricha, “bevosita soliqlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri daromaddan soliq to‘langanligi uchun soliq stavkasining kamaytirilishi korxonalar daromadining ko‘p qismini ularga qoldirib, investisiya faoliyatini kengaytirish imkonini yaratadi va bozor iqtisodiyotini rivojlantiradi” [5, 19-bet]. Fikrimizcha ushbu olimlarning xulosalari bevosita soliqqa tortishning iqtisodiy mohiyatini to‘laqonli ifodalagan.

Sh.To‘raevning xulosasiga ko‘ra, “bevosita soliqqa tortish tizimining samaradorligi nafaqat davlat budjetiga tushayotgan soliq to‘lovlarning umumiy summasi bilan, balki soliqlarni undirish bilan bog‘liq chora-tadbirlarga ketadigan umumiy sarf-xarajatlar miqdori bilan ham belgilanadi” [6, 378-bet]. Bizning fikrimizcha, tadqiqotchi olimning nuqtai nazari munozarali bo‘lib, bevosita soliqqa tortishning samaradorligini belgilovchi mezonlar ko‘pdir.

Umuman olganda, bevosita va bilvosita soliqlar guruhlariga ajratib, ularning mohiyatini yoritish eng avvalo, Yevropa mamlakatlarida shakllangan holda keyinchalik Rossiyada va O‘zbekistonda ham yuzaga kelgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

¹ Кривошеева А.А. Исторические и современные аспекты косвенного налогообложения // Молодой ученый. № 23 (365). - С. 382-384. <https://moluch.ru/archive/365/82056>.

Maqolada bevosita va bilvosita soliqlarning tarixiy shakllanish bosqichlari, soliq tizimining bevosita va bilvosita soliqlar tasnifi, soliq guruhlarining mazmun-mohiyati, nazariy va amaliy jihatlari hamda xususiyatlari keltirilib, bevosita va bilvosita soliqqa tortishning shakllangan metodologiyasi yuzasidan nazariy va amaliy tahlillar berilgan. Tadqiqot ishida tizimli, majmual va institutsional yondashuvlar, qiyosiy tahlil, iqtisodiy va matematik baholash modellaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda iqtisodiy taraqqiyotning nazariy va xuquqiy asoslarini yaratilishi jarayonida bozor iqtisodiyotiga o'tishning evolyutsion yo'li tanlandi. Bozor iqtisodiyotini shakllantirishning evolyutsion yo'lga monand holda mustaqil soliq qonunchiligini takomillashtirish ishlari ham bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Soliq tizimini va uning huquqiy me'yorlarini iqtisodiy islohotlarga moslashtirmasdan, qotib qolgan tarzda tashkil etib bo'lmasdi. Shu sababli, strategik maqsadimiz va islohotlarning ustuvor yo'nalishlariga monand holda soliq qonunchiligini tashkil etish va takomillashtirish yo'lidan borildi. Bunda, islohotlarning samaradorligi ko'p jihatdan olib borilayotgan soliq siyosati oldida qo'yilgan vazifalarga va ularning hal etilishiga bog'liq bo'ldi.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishining o'ziga xosligi, ya'ni evolyutsionligi bevosita va bilvosita soliqqa tortishni ham bosqichma-bosqich optimallashtirib borishini taqozo etdi. Shunday bo'lsada, uzoq yillar davomida bevosita va bilvosita soliqqa tortish darajalari unchalik o'zgarmadi, xorijiy mamlakatlarning optimal andozalarini tatbiq etish mushkul bo'ldi. Bu o'ziga xoslik rivojlangan mamlakatlarda shakllangan bevosita va bilvosita soliqqa tortishni tashkil etishni bir muncha chegaraladi. Shu bois, bevosita va bilvosita soliqqa tortishni optimal darajada tashkil etish maqsadida soliq tizimini tarixiy rivojlanish bosqichlarini tadqiq etish va strategik xulosalar chiqarish lozim, deb o'ylaymiz.

Mustaqillikning otgan yillarida soliq tizimining shakllanishini tadqiq qilinganda, soliq tizimi bir nechta asosiy bosqichlarga tavsiflanishi, bevosita va bilvosita soliqqa tortish tarkibi va tartibining o'zgarishi bilan izohlanadi. Ushbu bevosita va bilvosita soliqlar tizimidagi tub islohotlar va o'zgartirishlar tarkibi ko'rib chiqilganda, mamlakatimizning o'tgan davri davomida soliq tizimini shakllanishi va takomillashuvini tort bosqichga ajratish mumkin. Jumladan:

Birinchi bosqich, mustaqillikning 1991-1997 yillarini o'z ichiga olgan dastlabki mustaqil soliq tizimini tashkil etish davri hisoblanib, uning huquqiy asosini O'zbekiston respublikasining 1991-yil 22-fevraldagi "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida"gi qonuni tashkil etgan [7].

Ikkinchi bosqich, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 24-apreldagi 397-I-sonli "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksini amalga kiritish tartibi to'g'risida"gi qarori bilan birinchi marta **Soliq kodeksini** qabul qilinishi bilan boshlanib, bu davr 1998-2007 yillarni o'z ichiga oladi"[8]. Soliq kodeksi xalqaro qonunchilik mezonlariga asoslangan soliq qonunlari majmuasidir.

Uchinchi bosqich, soliq tizimini shakllantirishning 2008–2018-yillardan iborat davrlarini qamrab olib, yangi tahrirdagi soliq kodeksi sifatida soliq tizimining samaradorligini bir pogona ko'tardi.

Tortinchi bosqich, Ozbekistonning 2019 yil 30-dekabrda O'RQ-599-sonli qonuniga muvofiq qabul qilingan va 2020 yilning 1-yanvaridan kuchga kirgan yangi tahrirdagi soliq kodeksi bilan boshlandi. Bu bosqich soliq mexanizmlarining tub o'zgarishlarini qamrab olganlik bilan muhim ahamiyatga ega.

Bevosita va bilvosita soliqqa tortish tizimini shakllanishining **birinchi bosqichi** 1991–1997-yillardan iborat bo'lib, bu bosqich mustaqil soliq tizimini barpo etish davri bo'ldi. Bu davrda asosiy e'tibor mustaqil davlatchilikni tashkil etish uchun fiskal ahamiyatni oshirishga qaratilib, bevosita va bilvosita soliqlar (QQS, aksiz) tizimi shakllantirildi. Bu davrda soliq tizimidagi soliq va majburiy to'lovlar soni 20 dan ortiq bo'lib, haddan oshiq soliq yukini hosil qilgan. Shu boisdan, mustaqillikning ilk kunlarida amalda bo'lgan soliq tizimidan voz kechilib, bozor iqtisodiyotiga mos soliq tizimini yaratish islohotlari amalga oshirildi. Bu davrda bir muncha sezilarli ijobiy ishlar amalga oshirilgan bo'lsada, soliqlarni hisoblash va undirish borasidagi soliq mamuriyatchiligi o'ta murakkab edi. Bu davrda, inflyatsiya yuqori bo'lgani sababli, davlat daromadlarni tezroq undirish maqsadida oylik hisobotlari va avans to'lovlari talab qilish tartibi yuqori darajada fiskallikni tatbiq etgan.

Birinchi bosqichda bevosita va bilvosita soliqqa tortish darajasi tahlil qilinganda, mamlakatimizning mustaqilligini dastlabki 6-yilida YaIMga nisbatan soliq yukuning yuqoriligi va bunga mutanosib holda soliq tushumlarida bilvosita soliqlardan tushumlarning yuqoriligi quyidagi 1-jadvalda ko'rinadi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasining 1992-1997 yillarda yalpi ichki maxsulotidagi bevosita va bilvosita soliqlar nisbati (foizda)².

Ko'rsatkichlar	1992 yil	1993 yil	1994 yil	1995 yil	1996 yil	1997 yil
Yalpi ichki mahsulot % da	100	100	100	100	100	100
Birlashtirilgan budjet daromadi	44,4	49,3	41,1	39,2	44,8	38,6
Davlat budjet daromadi	31,4	36	29,1	29,8	34,2	29,7
Shundan soliqlar	26,5	30,6	22,6	28	28,1	25,9
Bilvosita soliqlar	17,8	16,5	13,2	14,7	13,7	11,8
Bevosita soliqlar	8,7	14,1	9,4	13,3	14,4	14,1
Boshqa to'lovlar va yig'imlar	4,9	5,4	6,5	1,8	6,1	3,8

Yuqorida keltirilgan 1-jadval ma'lumotlaridan ayyon bo'ladiki, 1993 yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan soliq yuki 30.6% bolgan holda 1997 yilda bu ko'rsatkich 25.9 %ni tashkil etgan, yani 4.7 foizga pasayganligi, bilvosita soliqlar tushumlari YaIMga nisbatan 1992 yildagi 17.8 %dan 1997 yilda 11.8 %ga, yani 6%ga pasayganligi kuzatiladi. Aksincha, bu yillarda bevosita soliq tushumlarining YaIMga nisbatan salmogi 1992 yildagi 8.7%dan 1997 yilda 14.1%ga, yani 5.4%ga o'sganligi kuzatiladi.

Bevosita va bilvosita soliqqa tortish tizimini shakllanishining ikkinchi bosqichi 1998–2007-yillarga to'g'ri keladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 24-apreldagi 397-I-sonli "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksini amalga kiritish tartibi

² Statistika qo'mitasi va Davlat soliq qo'mitasidan olingan ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

to'g'risida"gi qarori bilan birinchi marta xalqaro qonunchilik mezonlariga asoslangan Soliq kodeksi qabul qilindi. Ikkinchi bosqichida amalga kiritilgan Soliq kodeksiga muvofiq soliq turlari bir muncha ixchamlashtirildi va soddalashtirildi, soliq imtiyozlari qayta ko'rib chiqilib, tadbirkorlikni va investitsiyalarni rivojlantirishga yo'naltirildi. Bu davrda bevosita soliqlarni (daromad va foyda soliqlari) birlashtirish orqali ishlab chiqarishni rag'batlantirish choralari ko'rildi. Shuningdek, soliq tizimida bevosita va bilvosita soliqqa tortish tartiblarining aniq mexanizmlari belgilandi. Xususan, xarid qilingan xom-ashyo materiallar va xizmatlar uchun to'langan QQSni hisobga olish tartibining aniq mexanizmi joriy etildi.

Ozbekiston respublikasining bevosita va bilvosita soliqqa tortish tizimini shakllanishining ikkinchi bosqichida YaIMdagi budjet daromadi, undagi soliq tushimlari, shu jumladan bevosita va bilvosita soliqlar salmogi 2-jadvalda tahlil qilindi.

2-jadval

Ozbekistonning 1998-2007 yillar YaIMdagi bevosita va bilvosita soliqlar nisbati (foizda)³.

Ko'rsatkichlar	1998 yil	1999 yil	2000 yil	2001 yil	2002 yil	2003 yil	2007 yil
Yalpi ichki maxsulot % da	100	100	100	100	100	100	100
Birlashtirilgan byudjet daromadi	42	40,5	37,4	35,8	33,6	32,5	29,1
Davlat byudjeti daromadi	31,2	29,3	28	26,1	24,9	24,2	21,5
Soliq tushumlari	30,1	28,3	26,8	23,7	22,8	23,1	20,9
Shu jumladan:							
Bilvosita soliklar	16	15,9	15,9	13,5	13,6	14	12,6
Qo'shilgan qiymat soligi	9,4	7,3	7,5	6,6	6	5,5	5
Aksiz soligi	5,9	8,1	7,7	6,2	6,57	7,2	6,2
Chetga chiqaril. tovar. olin-n to'lov	0,2	0,2	0,4	0,3	-	-	-
Bojxona boji	0,5	0,3	0,3	0,4	0,7	0,9	1
Jismoniy shaxs trans vositalaridan olinadigan yoqilgi soligi					0,33	0,4	0,4
Bevosita soliqlar:	14,1	12,4	10,9	10,2	9,2	9,1	8,3
Foyda (daromad)dan olin-n soliq	5,9	4,4	3,6	2,9	2,5	2,2	2,1
Ishchi xizmatchilar ish xakidan daromad soligi	3,6	3,7	3,2	3,3	3,1	3	2,7
YATTF shug-n jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligi	0,4	0,4	0,4	0,6	0,47	0,3	0,3
Kichik korxonalariga yagona soliq	0,2	0,4	0,5	0,6	0,7	0,9	0,7
Infrastrukturani riv-sh soligi	0,3	0,3	0,4	0,3	0,53	0,4	0,4
Shu jumladan resurs to'lovlari	3,7	3,2	2,8	2,5	1,9	2,3	2,1
Yuridik korx-r mol-mulk soligi	0,7	0,8	0,8	0,7	0,5	0,5	0,4
Jism-y shaxs-r mol-mulk soligi	0,2	0,2	0,1	0,1	0,5	0,2	0,2
Trans vositasi-n olin-n soliq	-	-	-	-	-	-	-
Yer soligi	1,4	1,2	0,9	0,8	0,5	0,6	0,6
Nedradan foyda-k uchun soliq	0,5	0,3	0,3	0,2	0,2	0,3	0,35
Suv soligi	0,2	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1


³ Statistika qo'mitasi va Davlat soliq qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlarmasi.

Ekologiya soligi	0,7	0,6	0,6	0,6	0,6	0,6	0,45
Boshka to'lov va yigimlar	1,1	1	1,2	2,4	2,1	1,1	0,6

Keltirilgan 1.2.4-jadvalda amalga oshirilgan tahlil natijalaridan ayyon boladiki, yalpi ichki mahsulotga nisbatan jami soliq tushumi (soliq yuki) 1998 yilda 30.1% bolgan holda olib borilgan soliq islohotlari natijasida bu korsatkich 2007 yilga kelib bu korsatkich 20.9%ni tashkil etgan yoki soliq yuki 9.2 punktga pasayganligi kuzatiladi. Bu davrda soliq yukini pasayishiga mutanosib holda soliqlar yuki pasayib borgan. Jumladan, YaIMga nisbatan bilvosita soliq yuki 1998 yilda 16% bolgan holda bu korsatkich 2007 yilda 12.6%ni tashkil etganligi yoki 3.4 punktga pasayganligi kuzatiladi. Shuningdek, YaIMga nisbatan bevosita soliq yuki 1998 yilda 14.1% bolgan holda bu korsatkich 2007 yilda 8.3%ni tashkil etganligi yoki bevosita soliq yuki 5.8 punktga pasaygan.

Mamlakatimiz soliq tizimining uchinchi bosqichida (2008–2019-yillar) halqaro huquqiy normalar va ko'p yillik tajribalarga tayanilgan holda yangi tahrirdagi soliq kodeksi joriy etildi. Bu davrda soddalashtirilgan soliq tizimi bo'lgan yagona soliq to'lovining ixchamlashtirilgan va soliq yuki pasaytirilgan tartibi joriy etildi[9]. Shuningdek, bu bosqichda shakllangan soliq tizimida bevosita soliqlar va bilvosita soliqlar nisbati qisman uygunlashgan bo'lsada, jami soliq tushumlaridagi bevosita soliqlarga nisbatan bilvosita soliqqa tortishning ustuvorligi kuzatildi.

Soliq tizimini shakllantirishning uchinchi bosqich davrida bevosita va bilvosita soliqlarning foizdagi salmog'i 2012-2019 yillar bo'yicha tahlil qilinib, tahlil natijalari quyidagi 1-rasmda batafsilroq aks ettirildi.



1-rasm. O'zbekistonda 2012-2019 yillarda jami soliq tushumlarida bevosita va bilvosita soliqlar nisbati⁴.

⁴ Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Keltirilgan 1-rasmdagi tahliliy ma'lumotlardan ma'lum bo'ladiki, soliq islohotlarining uchunchi bosqichining dastlabki yillarida soliq tushumlaridagi bevosita soliqlar salmog'i pasayib, bilvosita soliqlardan tushumlar o'sib borganligi kuzatilsa, ammo 2019 yilga kelib soliq tushumlaridagi bevosita soliq 11.5 punktga o'sib, aksincha bilvosita soliqlardan tushumning nisbati pasaygan. Shu jumladan, 2012 yilda jami soliq tushumlardagi bevosita soliqlar tushumi 46.9%ni, bilvosita soliqlar tushumi 53.1%ni, 2013 yilda bevosita soliqlar tushumi 44.7%ni, bilvosita soliqlar tushumi 55.3%ni, 2014 yilda bevosita soliqlar tushumi 42.4%ni, bilvosita soliqlar tushumi 57.6%ni, 2018 yilda bevosita soliqlar tushumi 41.9%ni, bilvosita soliqlar tushumi 58.0%ni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda esa bevosita soliqlar tushumi 52.6%ni, bilvosita soliqlar tushumi 47.4%ni tashkil etgani yoki bir yilda soliqlar nisbati 11.4 punktga ozgarganligi kuzatiladi. Bevosita va bilvosita soliqlar nisbatining bunday o'zgarishi mamlakatimizda samarali iqtisodiy va soliqqa oid islohotlar tufayli soliq solinadigan daromadlarning o'sganligi bilan izohlanadi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan buyon bevosita va bilvosita soliqlardan iborat bolgan soliq tizimini takomillashtirish borasida olib borilgan va olib borilayotgan soliq islohotlarini davomi sifatida Ozbekiston respublikasining 2019 yil 30-dekabrda ORQ-599-sonli qonunining 1-moddasiga muvofiq yangi tahrirdagi soliq kodeksi qabul qilindi. Mazkur yangi tahrirdagi soliq kodeksini qabul qilinishi Ozbekiston respublikasida soliq tizimini shakllantirish davrining **yangi to'rtinchi bosqichini** boshlab berdi[10].

Yangi tahrirdagi soliq kodeksi joriy qilinishi oqibatida, soliq yuki sezilarli tarzda pasayganligini ko'rish mumkin. Xususan, bevosita soliqlar yuki sezilarli pasayganligi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini stavkasi 4-bosqichli progressiv stavkadan yagona 12% stavkaga o'tkazildi. Shuningdek, bilvosita soliqlar tarkibidagi QQSning stavkasi 15% dan 12% gacha pasaytirildi. Shuningdek, soliq tizimini shakllantirish va takomillashtirishning hozirgi to'rtinchi bosqichida soliq mamuriyatchiligi jadal tarzda raqamlashtirilib borilmoqda.

Soliq islohotlarining to'rtinchi bosqichida bevosita va bilvosita soliqqa tortish darajalarida ham o'zgarishlar sodir bo'ldi va ularning YaIMdagi hamda soliq ushumlariidagi salmog'i 3-jadvalda berildi.

Tahlil qilingan 3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, oxirgi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyoti yuksalib borayotgani sababli 2025 yilda 2018 yilga nisbatan YaIMning hajmi 433.5% ga o'sgan bo'lsa, budget daromadining hajmi 412.7%ga, soliq tushumlari 375.4%ga, shundan bilvosita soliqlar 237.6%ga, bevosita soliqlar 576.1 %ga va soliqsiz tushumlar 739.1%ga o'sgan. Bu raqamlardan ma'lum bo'ladiki, YaIMning o'sishiga nisbatan soliq yukining salmog'i (433.5-375.4) 58.1 %ga pasaygan.

Umuman olganda, soliq islohotlarining hozirgi to'rtinchi bosqichida soliq ma'muriyatchiligida ham katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Xususan, tekshirishlarni tayinlash tartibiga oid mezonlarga o'zgartirishlar kiritilib, aksariyat tekshirishlar inson omilisiz faqat dasturiy mahsul asosida amalga oshirish imkoniyatlari yaratildi. Bundan buyon, soliq xizmati organlari soliq huquqbuzarliklari uchun jarimalarni profilaktik tadbirlar natijasi bo'yicha qaror qabul qilingandan keyin qo'llay oladi. Shuningdek, yangi kodeksda ortiqcha undirilgan soliq summasi qaytarilishida foizlar qo'shib tolanishi belgilangan. Unga ko'ra, ortiqcha undirilgan soliq summasiga foizlar soliq to'lovchi undan

solliq ortiqcha undirilgani fakti o'ziga malum bo'lgan kundan yoki sudning qarori qonuniy kuchga kirgan kundan etiboran o'ttiz kun ichida murojaat etgan taqdirda hisoblanadi.

3-jadval

O'zbekiston respublikasi YAIM va budjet daromadlarida bevosita va bilvosita soliqlar tarkibining o'zgarishi⁵

Ko'rsatkichlar	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2025 yil	2025 yilda 2018 yilga nisbatan o'sishi (foizda)
Yalpi ichki mahsulot	426641.0	532712.5	605514.9	738425.2	896617.9	1066569.0	1454573.9	1849650.0	433.5%
Budjet daromadi	77571.1	112165.4	132938.0	164799.4	201863.7	231721.3	274423.0	320166.0	412.7%
Shundan soliq tushumlari	69600.1	97892.6	112892.2	138257.2	159750	184508.8	215537	261251.0	375.4%
Bilvosita soliqlar	41280.4	46427.2	46428.4	56290.4	71390.2	83325.8	88341.0	98103.0	237.6%
Bevosita soliqlar	28319.7	51465.4	66463.8	81966.8	88359.8	101183.0	127196.0	163148.0	576.1%
Soliqsiz boshqa daromadlar	7971.0	14272.8	20045.8	26542.2	42113.7	47212.5	58886.0	58915.0	739.1%

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mustaqillikning o'tgan 34-yillik davrida amalga oshirilgan soliq islohotlari natijasida bir muncha milliy xususiyatlar singdirilgan hozirgi zamonaviy soliq tizimi yuzaga keldi va bu soliq tizimi iqtisodiy mohiyatiga ko'ra bevosita va bilvosita soliqlardan iboratdir.

Shakllangan bevosita va bilvosita soliqlardan iborat soliq tizimining muammoli va ijobiy jihatlarini to'g'ri aniqlash va istiqbolli soliq mexanizmlarini qaror toptirish uchun o'tgan davrlar davomida shakllangan bevosita va bilvosita soliqlardan iborat soliq tizimining tarixiy- evolyutsion rivojlanish bosqichlarini nazariy va ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etish va baholash manfaatlidir.

Soliq islohotlari jarayonida, tadbirkorlik subyektlarini va soliq to'lovshi aholi qatlamini byudjet mablag'lari hisobidan ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlashni keskin kamaytirib borish va bu islohiy ishlarga mutanosib holda mamlakatning barcha soliq to'lovchilar qatlamiga jami soliq yukini kamaytirib borish va ularning qonuniy manfaatlarini oshirish har jihatdan foydalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Гаращенко И.В.Развитие прямого налогообложения в налоговой системе России: теория и практика. Автореферат диссертации на поиски ученой степени доктора экономических наук. – Ростов на-Дону, 2010. С.26-27.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining imv..uz saytidan olingan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2. Исторические и современные аспекты косвенного налогообложения/ А. А. Кривошеева. -Текст: непосредственный // Молодой ученый. № 23(365) -С.382-384. <https://moluch.ru/archive/365/82056>.

4. Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishga bevosita va bilvosita soliqlarning ta'siri. *Ekonomika*, 2024, vol. 103(2), <https://www.zurnalai.vu.lt/ekonomika/article/view/32861/34044>

5. А.Жўраев, Ш.Тошматов, О.Абдурахмонов. "Солиқлар ва солиққа тортиш" "Тошкент-норма" нашриёти, 2009, 420 бет.

6. Тўраев Ш.Ш. "Корхоналарда солиқ юкени оптималлаштириш масалалари." *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar (Economics and Innovative Technologies)* илмий электрон журнали, 3/2022 май-июнь, №00059, 378-385 б.

7. O'zbekiston respublikasining 1991-yil 22-fevraldagi "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida"gi qonuni.

8. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 24-apreldagi 397-I-sonli "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksini amalga kiritish tartibi to'g'risida"gi qaroriga muvofiq qabul qilingan Soliq kodeksi.

9. Ozbekiston respublikasining 2007 yil 25-dekabrda ORQ-136-sonli qonuniniga muvofiq qabul qilingan yangi tahrirdagi Soliq kodeksi.

10. Ozbekiston respublikasining 2019 yil 30-dekabrda ORQ-599-sonli qonuniniga muvofiq qabul qilingan yangi tahrirdagi Soliq kodeksi.

Copyright: ©2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

